

UMURTQALAR TUZILISHINING KLINIK VA AMALIY AHAMYATI

Mualliflar: Kozimova Zarnigor ,
Sirojjidinov Muhammadrizo va Xasanboyev Ziynatillo
Qo‘qon Universiteti Andijon filiali
Pedyatiriya yo‘nalishi 25-02 guruh talabalari

Annonatsiya

Quyida umurtqalar tuzilishining o‘ziga xosliklari va ularning klinik-amaliy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Har bir umurtqalar tuzilishi jihatidan murtoqa pog‘onasining anatomik va funksional tuzilishini o‘rganish hamda uning shikastlanishlari patologiyalari va klinik ahamyatini tahlil qilish. Qo‘shimcha qilganda tadqiqotda diagnostika va davolash usuli samarasi sog‘lom umurtqani saqlash.

Kalit so‘zlar

Umurtqa pog‘onasi, umurtqalar tuzilishi, klinik ahamiyati, suyak tizimi, himoya funksiyasi, nevrologik belgilar, lordoz, kifoz

Kirish

Umurtqa pog‘onasi inson tanasining asosiy tayanch qismidir. U nafaqat mexanik funktsiyani bajaradi, balki spinal nervlar uchun himoya vazifasini ham bajaradi. Zamonaviy hayotda — ayniqsa, kompyuter oldida uzoq vaqt o‘tiradigan yoshlarda — umurtqa deformatsiyalari (skolioz, kifoz, lordoz) va gryja kabi kasalliklarning ko‘payishi mavzuni yanada dolzarb qiladi. . Umurtqalarning umumiy anatomik tuzilishi. Har bir umurtqaning asosiy qismlari: tanasi, yoy qismi va o‘simtalari (tik, bo‘ylama, yonbosh). Umurtqa pog‘onasining bo‘limlari: Cervicalis (bo‘yin) – 7 ta umurtqa, Thoracalis (ko‘krak) – 12 ta, Lumbalis (bel) – 5 ta, Sacralis (dumg‘aza) – 5 ta birlashgan, Coccygeus (dum) – 3–5 ta kichik birlashgan. Umurtqalarning soni va shakli har bir bo‘limda turlicha bo‘lib, bu harakat chegarasini hamda klinik diagnostikada muhim rol o‘ynaydi [1].

Tayanch funksiyasi: Tanani to‘g‘ri holatda ushlab turadi.

Himoya funksiyasi: Orqa miya (medulla spinalis) uchun suyakli himoya yaratadi.

Harakat funksiyasi: Orqa miya nerv ildizlari orqali harakatni ta'minlaydi.

Amortizatsiya funksiyasi: Mezhpozvonkovyy disklar zarbani yumshatadi.

Skolioz – tananing yon tomonga og'ishi, ko'pincha yoshlarda uchraydi.

Kifoz – orqa tomonga haddan tashqari egilish.

Lordoz – oldinga cho'zilish (belning ortiqcha egilishi).

Spondilolistez – umurtqaning siljishi yoki siqilishi.

Umurtqa kasalliklarini shikastlanish va amaliy ahamiyati yo'llarini aniqlash

Kasalik aniqlashda (diagnostika usullari) haqida aniq, tibbiy faktlar o'rganiladi. Umurtqa kasaligini to'g'ri aniqlashda instrumental va laborator tekshiruvlar qo'llanadi. Birinchi navbatda shifokor bemorni ko'zdan kechirish kerak. Og'riq mushaklari, harakatlar aniqlanadi. Skolioz, Kifoz, Lordozlar ko'rish orqali aniqlanadi. Umurtqa joylashuvi, sinish siljish aniqlanadi. bu deformatsiyalar nafaqat suyak tizimiga, balki nafas olish, yurak-qon tomir va asab tizimlariga ham ta'sir qiladi. Mexanik zarba natijasida umurtqa yoriqlari yoki kompression sinishlar yuz beradi. Bunday holatlarda nevrologik belgilar (parez, falajlik)ni aniqlash muhim.

Diagnostika

Mezhpozvonkovyy disk gryjasi: Disk yadrosi chiqib, n. spinalisni siqadi → og'riq, harakat cheklanishi, mushak zaifligi yuz beradi. Klinik amaliyotda bu holat MRI diagnostika va nevrologik testlar orqali aniqlanadi. Xirurgiyada: O'steosintez, disk protezlash va stabilizatsiya operatsiyalari uchun umurtqa anatomiyasini mukammal bilish zarur. Fizioterapiya va rehabilitatsiyada: Umurtqaning to'g'ri holatini saqlash, mushak muvozanatini tiklash va sog'lom harakatni ta'minlash. Klinik tekshiruvlar - bemorni gavdasi va yurish turishiga nisbatan aniqlanadi. Rentgenografiya-umurtqa sinishini deformatsiyasini aniqlaydi. Kompyuter tomografiya -suyak o'smasi jarohatni aniqlaydi. MRT-(Magnit rezonans tomografiya)-orqa miya ,disklar,nerv ildizlari holatini ko'tsatadi.

Xulosa

Umurtqalar tuzilishi inson tanasining markaziy tayanchi bo'lib, uning to'g'ri morfologiyasi sog'lom harakat va asab tizimi faoliyati uchun muhim ahamiyatga

ega.Klinik nuqtai nazardan har bir bo‘limning anatomik xususiyatlarini bilish shikastlanish, deformatsiya va operatsiyalar vaqtida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.Zamonaviy diagnostika (rentgen, KT, MRT) va reabilitatsiya usullari umurtqa anatomiyasi bilimlariga tayanadi. Ushbu ilmiy ishni yozish davomida men umurtqa pog‘onasi inson organizmi uchun naqadar muhim tuzilma ekanini yanada chuqurroq angladim. Avvallari bu faqat suyak tizimining bir qismi deb o‘ylagan bo‘lsam, endi uning butun tananing harakati, muvozanati va hatto ichki organlarning to‘g‘ri joylashuvi uchun mas’ul asosiy markaz ekaniga ishonch hosil qildim.Tadqiqot davomida shuni ko‘rdimki, hozirgi kunda umurtqa kasalliklari juda ko‘p uchrayapti. Ayniqsa, yoshlar orasida noto‘g‘ri o‘tirish, telefonga egilib qarash yoki harakatsizlik tufayli umurtqa shakli buzilmoqda. Shu sababli bunday muammolarning oldini olish uchun to‘g‘ri o‘tirish, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish va tibbiy profilaktika muhim ahamiyatga ega.Diagnostika usullari haqida o‘rganar ekanman, MRT va KT kabi zamonaviy tekshiruvlar orqali hatto kichik o‘zgarishlarni ham aniqlash mumkinligini bildim. Bu esa kasallikni erta aniqlash va samarali davolash imkonini beradi. Shu bilan birga, oddiy klinik ko‘rikning o‘zi ham tashxis qo‘yishda juda muhim ekan.Davolash usullarini o‘rganish jarayonida esa umurtqa kasalliklarida faqat dorilar emas, balki fizioterapiya, reabilitatsiya va to‘g‘ri hayot tarzi ham muhim o‘rin tutishini tushundim. Shifokor va bemor o‘rtasidagi hamkorlik ham sog‘ayish jarayonida katta rol o‘ynaydi.Umurtqa tuzilishini o‘rganish orqali men inson organizmining qanday mukammal yaratilganini, har bir suyak, disk va nervning o‘z vazifasi borligini his qildim. Shu sababli kelajakda har bir tibbiyot xodimi, ayniqsa pediatr, bu tizimni mukammal bilishi zarurligiga amin bo‘ldim.Men uchun bu mavzu nafaqat ilmiy, balki hayotiy jihatdan ham foydali bo‘ldi. Chunki sog‘lom umurtqa — sog‘lom tananing poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Sinelnikov R.D. Normal anatomiya cheloveka. T. I . – Moskva: GEOTAR-Media, 2024.
2. Gayvoronskiy I.V. Anatomiya cheloveka. – Sankt-Peterburg: SpetsLit, 2023.

3. Mirsharapov U.M., Toshpo‘latov Sh. va boshqalar. Odam anatomiyasi. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2024.
4. Gray H., Drake R.L., Vogl W., Mitchell A.W.M. Gray’s Anatomy for Students. – 5th Edition. – Philadelphia: Elsevier, 2024.
5. Gray’s Anatomy for Students, 5th Edition, 2024.
6. Netter F. Atlas of Human Anatomy, 8th Edition.